



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 28-mart

150-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 27-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muborak Ramazon hayitini nishonlash to‘g‘risida” 2025-yil 26-martdagi PQ-124-son qarori ijrosi haqida”gi 154-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

Ramazon hayitining xalqimiz ma’naviy hayotida tutgan o‘rni, uning jamiyatimizda sahiylik, shukronalik, mehr-oqibat kabi fazilatlarni qaror toptirishdagi ahamiyatini inobatga olib hamda milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va ulug‘lash, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muborak Ramazon hayitini nishonlash to‘g‘risida” 2025-yil 26-martdagi PQ-124-sonli hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 27-martdagi 154-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21¹-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 27-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muborak Ramazon hayitini nishonlash to‘g‘risida” 2025-yil 26-martdagi PQ-124-son qarori ijrosi haqida”gi 154-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta’minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

joriy yilda Ramazon hayitining birinchi kuni 30-mart – yakshanba kuniga to‘g‘ri kelishi haqida O‘zbekiston musulmonlari idorasining axboroti ma’lumot uchun qabul qilinganligi, mamlakatimizda 30-mart kuni Ramazon hayiti bayrami sifatida keng nishonlanishi belgilanganligi;

a) O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 208-moddasiga muvofiq:

a) ishlanmaydigan bayram kuni hisoblanuvchi Ramazon hayitining birinchi kuni 2025-yilda yakshanba - dam olish kuniga to‘g‘ri kelishi munosabati bilan ushbu dam olish kuni 30-mart – dushanba kuniga ko‘chirilganligi;

bunda ishlab chiqarish-texnik va tashkiliy sharoitlar (mavjud uzluksiz ishlab chiqarish, aholiga har kuni xizmat ko'rsatish, navbatchilik asosida ishlash va boshqalar) tufayli ishlanmaydigan bayram kunlari to'xtatib qo'yish mumkin bo'lmagan ishlarni bajarishda dam olish kunlari ko'chirilmasligi ma'lumot uchun qabul qilinganligi e'tiborga olinsin.

3. Tuman hokimining o'rinbosari J.Raximov, Din ishlari bo'yicha qo'mitaning tumandagi bosh mutaxassisi I.Nishonov, O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi (E.Abduraxmanov) va boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda muborak Ramazon hayitini xalqimizning milliy an'ana va urf-odatlariga uyg'un holda o'tkazish uchun tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman hokimligi Axborot xizmati (Sh.Kenjayeov), "Mingbuloq" gazetasi (Q.Akbarov)ga Ramazon hayitini nishonlash bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov